

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARI INTEGRATSİYASI

Umarova Dilafroz Anvarovna

“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Khalilova Anora Dilmurod qizi

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-21-guruh talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur ishda boshlang‘ich ta’lim fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va samaradorlik omillari yoritilgan. Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi bolalarning bilimlarni kompleks ravishda egallashiga, mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga va hayotiy vaziyatlarga moslashgan holda qo‘llay olishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda boshlang‘ich sinf fanlarini o‘zaro bog‘laydigan umumiylar mavzular, faoliyat turlari, hamda o‘qituvchilarning roli va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, integratsiyalashgan darslar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, kommunikativ va ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, fanlar integratsiyasi, kompleks yondashuv, dars samaradorligi, o‘quvchi faolligi, o‘qitish metodikasi, ko‘nikma rivoji, innovatsion ta’lim

**Annotation.** In this work, the theoretical foundations, practical significance and efficiency factors for the integration of primary education disciplines are covered. The integrated educational approach serves to ensure that children acquire knowledge in a complex way, understand the connection between subjects and be able to apply it adapted to life situations. The study analyzed common topics, types of activities, as well as the role and methodical approaches of teachers, linking primary school subjects. Also, through integrated classes, the possibilities of students to develop independent thinking, solving problem situations, communicative and skills are shown

**Keywords:** Elementary Education, Science integration, integrated approach, lesson efficiency, student activity, teaching methodology, skill development, innovative education

**Аннотация.** В данной работе освещены теоретические основы, практическая значимость и факторы эффективности интеграции предметов начального образования. Комплексный образовательный подход служит для того, чтобы дети приобретали знания в комплексе, понимали связи между предметами и могли применять их адаптированно к жизненным ситуациям. В исследовании были проанализированы общие темы, виды деятельности, а также роли и методические подходы учителей, которые связывают предметы начальной школы. Также показаны возможности развития у учащихся самостоятельного мышления, решения проблемных ситуаций, коммуникативных и умений посредством интегрированных занятий

**Ключевые слова:** начальное образование, интеграция дисциплин, комплексный подход, эффективность урока, активность учащихся, методика обучения, развитие навыков, инновационное образование

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrashi, kreativ yondashuvi va hayotiy bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Shu bois, mazkur bosqichdagi fanlarni bir-biriga uzviy bog‘lab o‘qitish, ya’ni fanlar integratsiyasi orqali o‘quvchilarning chuqur va puxta bilim olishini ta’minlash dolzarb vazifalardan biridir. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarda real hayotdagi muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi, turli fanlarda olgan bilimlarini umumlashtirib, amaliyotda qo‘llay olishga yordam beradi. Bu uslub, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mavzularni yaxlit idrok etish, fikrlash doirasini kengaytirish va o‘zaro bog‘liq bilimlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, boshlang‘ich ta’lim fanlarining o‘zaro integratsiyasini samarali tashkil etish masalasi nafaqat metodik, balki didaktik va psixologik yondashuvlarni ham o‘z ichiga

oladi. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar integratsiyalashgan darslarning o'quvchilarining darsga qiziqishini oshirish, faoliyatga jalb qilish va ularning bilim sifati hamda ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatmoqda.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Fanlar integratsiyasi masalasi pedagogika fanida uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda. A.V. Xutorskoy integratsiyani o'quvchilarda tizimli tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida ko'rasi. Unga ko'ra, fanlararo aloqadorlik bilimlarning yaxlit tasvirini hosil qilishga xizmat qiladi. V.V. Davydov esa boshlang'ich sinfda mavzularni umumlashtirish orqali o'quvchilarining kognitiv rivojlanishiga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. O'zbek pedagogikasida esa H. Yo'ldoshev, M. Nishonova va B. Xodjayevlar integratsiyalashgan yondashuvni o'qituvchining innovatsion metodikasi sifatida baholaydi. Bu olimlar boshlang'ich ta'limda mavzularni birlashtirish, fanlararo bog'liqlikni shakllantirish orqali bolalarda chuqur va mustahkam bilim hosil bo'lishini ta'minlash mumkinligini ilmiy asoslab bergen. O'quv dasturlari va zamonaviy metodik qo'llanmalarda ham integratsiyalashgan darslarning samaradorligi, ayniqsa faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali o'quvchilarining qiziqishi va faolligi oshishi haqida ko'plab misollar keltiriladi.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida integratsiyalashgan ta'lim jarayonining samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy bazasini shakllantirish uchun ilg'or xorijiy va mahalliy pedagoglarning ishlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar va davlat ta'lim standartlari o'rganildi. Shu orqali integratsiya tushunchasining didaktik va metodik asoslari aniqlab olindi. Mavzuga doir mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ularning o'zaro farqlari va umumiyligi jihatlari aniqlashtirildi. Tadqiqotning amaliy qismi esa real o'quv jarayoni misolida olib borildi. Boshlang'ich sinflarda o'tilayotgan darslarni kuzatish orqali o'qituvchilarining integratsiyalashgan metodlardan qanday foydalanayotgani, ularning darsga ta'siri va o'quvchilarining reaksiyasi tahlil qilindi. O'qituvchilarga so'rovnama va intervylular o'tkazilib, ularning fikrlari asosida mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlab chiqildi. Kuzatuv jarayonida darsdagi o'quvchilarining ishtirok

faolligi, savol-javoblardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasi kabi ko'rsatkichlar hisobga olindi. Shuningdek, tajriba-sinov usulida ikki guruh o'quvchilarga – biri an'anaviy, ikkinchisi esa integratsiyalashgan darslarda – bir xil mavzular o'rgatildi va yakuniy baholash orqali ularning bilim darajalari solishtirildi. Natijalar ko'rsatdiki, fanlararo bog'liqlik asosida o'qitilgan guruhda o'quvchilarning bilimni eslab qolish darajasi, mustaqil fikrlash, savolga javob berish tezligi va topshiriqlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalari ancha yuqori bo'ldi. Tadqiqot davomida kontent-tahlil, taqqoslash, induktiv va deduktiv umumlashtirish, kuzatuv, eksperiment, testlash, suhbat, diagnostika kabi metodlardan foydalanildi. Bu metodlar orqali to'plangan ma'lumotlar asosida boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyasi samarali ta'lim olishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlashga harakat qilindi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ldi.

**Natija va muhokama.** O'tkazilgan kuzatuvlar, suhbatlar va tajriba-sinov ishlari asosida shuni aniqlash mumkinki, boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalash orqali darslar yanada mazmunli, o'quvchi uchun tushunarli va qiziqarli bo'ladi. Darslarda fanlararo bog'liqlik asosida ishlangan materiallar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni faollikka undaydi va mustaqil fikr yuritish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, hayotiy holatlarga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Integratsiyalashgan darslarda ishtirok etgan o'quvchilar mavzularni yaxlit qabul qilgani, turli fanlarda olgan bilimlarini bir-biriga bog'lab tushunishga harakat qilgani kuzatildi. O'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat pedagoglar integratsiyalashgan yondashuv orqali dars samaradorligini oshirish mumkinligini tan oladilar, biroq bunga tayyor o'quv-metodik materiallar, vaqt va malaka yetishmovchiligi ayrim to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, tajriba asosida an'anaviy va integratsiyalashgan yondashuvlar solishtirilganda, oxirgi usulda o'quvchilar topshiriqlarni tezroq va aniqroq bajargani, bilimlarni mustahkamroq egallagani aniqlandi. Bularning barchasi integratsiyaning o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'rmini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar shuni anglatadiki, boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyasi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki

o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish, bilimlarni hayotga tatbiq etish ko‘nikmasini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Muhimi, bu yondashuv zamonaviy pedagogikaning asosiy talablari – faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvar bilan hamohang ekanligi bilan ajralib turadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tahlillar va amaliy kuzatuvarlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim fanlarini integratsiyalash o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish, tafakkurini kengaytirish, mavzularni yaxlit holda idrok etish va o‘rganilgan bilimlarni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Integratsiyalashgan yondashuv darslarni mazmunan boyitadi, o‘quvchida fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish orqali tizimli fikrlashni shakllantiradi va ularni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchining innovatsion yondashuvi, metodik mahorati va kreativ fikrashi asosiy omil hisoblanadi. Shu asosda, boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiyani kengroq joriy etish, unga mos o‘quv-metodik materiallar ishlab chiqish, o‘qituvchilarni ushbu yo‘nalishda muntazam malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash, tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish, hamda amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan metodlarni ommalashtirish maqsadga muvofiqdir. Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi zamonaviy ta’lim talablariga to‘la mos keladi va boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev H. *Pedagogik texnologiyalar asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
2. Nishanova S. *Boshlang‘ich ta’lim metodikasi*. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Xodjayev B. *Didaktika asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
4. To‘raqulova M. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini integratsiyalashgan o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Juraeva N. *Boshlang‘ich ta’limda fanlararo bog‘liqlikning ahamiyati*. – Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.

6. Xoliqova D. *Innovatsion ta'limgan texnologiyalari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
7. Ergasheva G. *Boshlang'ich ta'linda o'quvfaoliyatini tashkil etishning samarali usullari.* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
8. Sattorova M. *Ta'linda integratsion yondashuv.* – Pedagogik izlanishlar jurnali, 2022, №4.
9. Qodirova M. *Boshlang'ich ta'linda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish.* – Toshkent: TDPU, 2019.
10. Raxmatova Z. *Ta'linda fanlararo aloqadorlikning nazariy asoslari.* – Toshkent: Ma'rifat, 2020.
11. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
12. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
13. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
14. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.